

asosida yotadi, ishonchga asoslangan tizimga bo’lgan ishonchning yo’qolishi oqibatida u yanada kuchayadi. Bu Bears Sterns, Lehman Brothers va boshqa Amerika investitsiya banklari, Yevropada esa Northern Rock, UBS, WestLB va boshqa banklar ko’rsatganidek, bank tizimining, shu jumladan bank ta’sischiligidagi tashkil etilgan nobank tashkilot institutlarining zaifligini ochib berdi¹⁸⁸. Hannes Androsch maqolaning ikkinchi qismida alohida moliyaviy korporatsiyalar, banklar va transmilliy kompaniyalar misolida Yevropadagi iqtisodiy inqirozga sabab bo’lgan bank bozorining tarkibiy tahlili keltirilgan.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, olgan holda, iqtisodiy termin sifatida kvazi-bank atamasini bank litsensiyasiga ega bo’lmagan holda, moliyaviy xizmatlar ko’rsatish yo’li orqali o’z mijozlarining iqtisodiy ehtiyojlarining bir qismini qondirishga qodir bo’lgan moliyaviy muassasa sifatida fanga kiritish mumkin. Kelajakda alohida litsenziyalash va yagona majburiy hisobot shakllarini joriy etish orqali ham bunday institutlarning reestrini yaratish orqali ham bunday kompaniyalar faoliyati ustidan qo’shimcha davlat nazoratini joriy etishning bir qancha ssenariylari mavjud. Umuman olganda, bunday iqtisodiy subyektlari moliya bozorida o’z faoliyatini tashkil etish va yuritish orqali davlatning ba’zi vazifalarini amalga oshirishga ko’maklashishi mumkin: Bular quydagilar:

1. Moliyaviy xizmatlarning keng doirasini ko’rsatish orqali bank bozorining investitsion jozibadorligini oshirish;
2. Mijozlar bazasi kengaytirish va o’zaro hamkorlikning shaffof mexanizmini ta’minlash orqali yashirin iqtisodiyot bozorini qisqartirish;
3. Mamlakatning bank sektoriga bank tarkibidagi institutlar faoliyatini tashkil etish orqali integratsiya platformalarini yaratish.
4. Mijozlar va kvazibank muassasalari o’rtasidagi barcha operatsiyalarni identifikatsiya qilish orqali soliqlar ko’rinishidagi davlat budjet daromadlarini oshirish;
5. Kvazibank institutlari ko’p yillardan buyon o’z moliyaviy faoliyatini amalga oshirib kelayotgan davlatlar bilan tajriba almashadigan xalqaro platformalar, ko’rgazmalar, ishchi guruhlar tashkil etish.

IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHDA ISLOM BANKLARINING O’RNI

***Eraliyeva Nigora Farhodjon qizi**
O’zbekiston xalqaro islom akademiyasi magistranti*

Xalqaro maydonda an’anaviy moliya modeliga muqobil ravishda kirib kelgan islom moliyasi jadal sur’atlarda rivojlanmoqda. Bu rivojlanish ko’rsatkichiga dunyoda islom diniga e’tiqod qiluvchilarning soni 2 mlrd dan oshgani bir turtki bo’lsa, ikkinchi tomondan islom moliya instrumentlari insonlar ehtiyojini qondira olayotgani yana bir sabab bo’lmoqda. 2007-2008 yilda yuz bergan Jahon iqtisodiy

¹⁸⁸<https://www.japantimes.co.jp/opinion/2008/10/05/commentary/world-commentary/eu-financially-vulnerable-when-confidence-collapses/>

moliyaviy inqirozi davrida an’anaviy moliya tizimidan farqli ravishda islom moliya tizimida 10-15% o’sish surati kuzatildi¹⁸⁹. Islom moliyasi tizimida katta segmentni islom banklari egallab, yildan yilga ularning salmog’i ortib bormoqda. 2019-yil holatiga ko’ra Islom moliya aktivlari umumiy qiymati \$2,961 mlrdni tashkil etgan bo’lsa, 2021-yilga kelib bu ko’rsatkich \$3,958 mlrdga yetdi va umumiy 33% ga o’sishga erishdi¹⁹⁰.

Islom bank ishi islom shariati qoidalari va tamoyillariga muvofiq bank va tadbirkorlik faoliyatini amalga oshiruvchi islom moliya tizimidir. U savdo va biznesga oid islom huquqshunosligining fiqhal-muamalat yoki bitimlar bo’yicha islom qoidalari deb ataladigan e’tiqod va tamoyillariga amal qiladi. Qur’on, Sunnat va islom huquqining boshqa manbalari, jumladan, ijmo’ (shariat ulamolari o’rtasida umumiy kelishilgan fikrlar), qiyos (o’xshatish) va ijthod (shaxsiy mulohazalar) birgalikda asos bo’ladi.

Islom banklari faoliyatida quyidagi tamoyillarga asoslanadi:

1. Risklarni taqsimlash: Shartnomaning har bir ishtirokchisining o’rtasida munosib risk yoki daromad taqsimoti aks ettirilishi kerak;
2. Barcha moliyaviy operatsiyalar “moddiy yakuniylikka” ega bo’lishi kerak, ya’ni haqiqiy asosiy iqtisodiy bitim bilan bevosita bog’liq bo’lishi kerak;
3. O’zgaralar mehnatini o’zlashtirib olishga yo’l qo’yilmaydi;
4. Islom shariatiga to’g’ri kelmaydigan faoliyatni moliyalashtirishning taqiqlangani: Bitimdan Qur’on Karimda taqiqlangan mahsulotlarni (masalan, alkogol, cho’chqa go’shti, qimor o’yinlari, pornografiya va boshqalar) ishlab chiqarish uchun foydalanib bo’lmaydi;
5. G’ararning ta’qiqlangani;
6. Maysir (taxminlarga asoslangan)ning ta’qiqlangani – Shariat qonuniga ko’ra, derivativlar kabi spekulyativ operatsiyaga investitsiya kiritish noqonuniy hisoblanadi.

Bugungi kunda islom banklarida an’anaviy bank operatsiyalarining deyarli barcha operatsiyalarini amalga oshirmoqda. Ular sanoat, agrar sektor, tijorat va xizmat ko’rsatish sohalariga katta mablag’lar investitsiya qilmoqda.

Quyida islom banklari faoliyatida ko’p qo’llaniluvchi moliyalashtirish turlari berilgan:

Mudaraba- foydani taqsimlash yoki ishonchli tarzda moliyalashtirish to’g’risidagi shartnomalar, loyihalarni moliyalashtirishga o’xshash, bunda banklar va omonatchilar ishonch asosida investitsiya shartnomalarini imzolaydilar;

Musharaka- sheriklar o’z mablag’lari, kapitali va boshqa aktivlarini investitsiya qilish uchun foyda va zararni taqsimlash tamoyilidan foydalanadigan qo’shma korxonaga o’xshash loyihani moliyalashtirish turi;

Murabaha shartnomasi- bu qo’shimcha kelishilgan foyda bilan tannarxi

¹⁸⁹ Raj S. Dhankar University of Delhi, Delhi Islamic Banking and Financial Stability-- An Empirical Evidence from Gulf Region; XVI Annual Conference Proceedings January, 2015.

¹⁹⁰ Shereen Mohamed, Tayyab Ahmed, Islamic Finance Development Indicator Report 2022.

bo'yicha tovarlarni sotish shartnomasi;

Musovama - foyda bilan tannarxi bo'yicha ma'lumotlar oshkor qilinishi talab qilinmaydigan shartnoma;

Ijara- har ikki tomon ham kelishilgan boshqa shartlar asosida bankning mijozi tomonidan talab qilinadigan aktivni sotib oladi va so'ngra bu aktivni mijozga ma'lum muddatga ijaraga beradigan shartnoma.

Istisna- asosan mahsulot ishlab chiqarish, qurilish va infratuzilma loyihalarini moliyalashtirishda qo'llaniluvchi moliyalashtirish;

Salam- shartnoma shartnomasiga o'xshash tovarlarni etkazib berish uchun oldindan moliyalashtirish;

Sukuk – bu davlat va xususiy kompaniyalar amalga oshirishi mumkin bo'lgan muayyan o'rta yoki uzoq muddatli loyihani moliyalashtirish uchun bank chiqargan obligatsiyalar;

Vakala shartnomasi- bu boshqaruvchining ma'lum bir vazifani bajarishi uchun uning nomidan vakil sifatida (agent) boshqa bir shaxsning xizmatidan foydalanishni anglatadi.

Islom banklar mijozlar risklarini imkon qadar kamaytirishga qaratilgan, shuning uchun u an'anaviyga qaraganda xavfsizroq va barqarorroq hisoblanadi. Islom modelining keng tarqalishi nafaqat uning barqarorligiga, balki sarmoyaning axloqiy turiga ham bog'liq. Investorlarning fikricha, islom modeli boshqariladigan risk bilan investitsiya portfelini kengroq diversifikatsiya qilishni anglatadi. Past riskli aktivlar umumiy investitsiya portfelini standartlashtirishga, xavfni kamaytirishga va uni barqarorlashtirishga yordam beradi. Konservativ sarmoyadorlar toifasi ham islomiy modelni tanlaydi, chunki ular maxsulotlarning narxi, barqarorligi va sifati bo'yicha afzalliklarni ko'radilar.

O'zbekiston milliy iqtisodiyotini rivojlantirishda ham islom banklarini tashkil etish muhim ahamiyat kasb etadi. Jahon tajribasini, jumladan yaqin sharq mamlakatlari tajribalarini o'rgangan holda, O'zbekistonda ham dualistik bank tizimiga o'tish vaqti keldi deb hisoblayman. Bu o'z navbatida mamlakatimiz iqtisodiyotini yanada rivojlanishiga o'zini tasirini o'tkazdi. Shu bilan birgalikda e'tiqodi bo'yicha an'anaviy bank xizmatlaridan foydalanmayotgan musulmonlar uchun ham islom banklarini tashkil etish aholi qo'lida turgan bo'sh mablag'larni jalb qilish uchun sharoit yaratadi. Ijtimoiy jihatdan islom moliya mahsulotlaridan foydalanish aholi turmush tarzida adolat, sherikchilik, halol mahsulotlar bilan savdo qilish kabi ijobiy jihatlarni shakllantiradi. Avvalo, O'zbekistonda Islom banklarini tashkil etishda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan muammo va kamchiliklar bartaf etilishi lozimdir. Islom bank faoliyatini tartibga soluvchi huquqiy hujjatlar yaratish, malakali kadrlar tayyorlash va albatta aholini islom moliyasi bo'yicha savodxonligini oshirmog'imiz lozim.